ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

"TARBIYA" DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O'QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS'ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Surayyo Babojonovna
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishda raqamli hikoyalardan foydalanish orqali o'quvchilarda halollik, mas'uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Raqamli hikoyalarning tarbiyaviy mazmuni, o'quvchilarning axloqiy vaziyatlarni tahlil qilishi, qahramonlar xatti-harakatlariga baho berishi va mustaqil xulosa chiqarishiga ta'sir etuvchi metodik omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli hikoyalarni dars jarayoniga integratsiya qilish bosqichlari, amaliy topshiriqlar va o'quvchilarda axloqiy fazilatlarning shakllanishini baholash mezonlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: "Tarbiya" fani, raqamli hikoya, halollik, mas'uliyat, mehr-oqibat, boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, raqamli ta'lim, interfaol metod, ma'naviy qadriyatlar.

Abstract: This article highlights the pedagogical potential of using digital storytelling to foster qualities such as honesty, responsibility, and compassion in students during "Tarbiya" (Moral Education) lessons in primary grades. It examines the educational content of digital stories and the methodological factors that influence students' ability to analyze moral situations, evaluate characters' actions, and draw independent conclusions. Additionally, the article proposes stages for integrating digital stories into the lesson process, suggests practical tasks, and outlines criteria for assessing the development of moral qualities in students.

Key words: "Tarbiya" subject, digital storytelling, honesty, responsibility, compassion, primary education, moral education, digital education, interactive method, spiritual values.

Аннотация: В статье освещается педагогический потенциал использования цифрового сторителлинга для формирования у учащихся начальных классов таких качеств, как честность, ответственность и сострадание, в рамках уроков "Тарбия" (нравственное воспитание). Рассматриваются образовательное содержание цифровых историй и методические факторы, влияющие на способность учащихся анализировать нравственные ситуации, оценивать поступки персонажей и делать самостоятельные выводы. Кроме того, в статье предложены этапы интеграции цифровых историй в учебный процесс, рекомендованы практические задания и определены критерии оценки развития нравственных качеств у учащихся.

Ключевые слова: предмет "Тарбия", цифровой сторителлинг, честность, ответственность, сострадание, начальное образование, нравственное воспитание, цифровое образование, интерактивный метод, духовные ценности.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri yosh avlodni bilimli, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan va yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davri bolaning axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari va atrofdagilarga munosabati shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ushbu davrda o'quvchilarda halollik, mas'uliyat, mehr-oqibat, adolat, hurmat va o'zaro yordam kabi fazilatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Halollik insonning rostgo'y bo'lishi, o'zgalarning haqqiga xiyonat qilmasligi va o'z xatti-harakatlarini vijdonan baholashi bilan namoyon bo'ladi. Mas'uliyat o'quvchining o'z vazifalarini anglab bajarishi, bergan va'dasiga amal qilishi va xatti-harakatlari oqibatini tushunishini ifodalaydi. Mehr-oqibat esa boshqalarning holatini tushunish, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlash va atrofdagilarga samimiy munosabatda bo'lish orqali namoyon bo'ladi.

Mazkur fazilatlarni o‘quvchilarga faqat nazariy tushuntirish orqali singdirish yetarli emas. Ularni kundalik hayotga yaqin vaziyatlarda namoyon qilish, axloqiy muammolarni tahlil etish va o‘z xatti-harakatlariga baho berishga o‘rgatish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, raqamli hikoyalar “Tarbiya” darslarining tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli hikoyalar matn, tasvir, ovoz, musiqa va animatsiya kabi elementlar orqali muayyan voqea yoki hayotiy vaziyatni ifodalash imkonini beradi. Ular o‘quvchilarning diqqatini jalb etish bilan birga, axloqiy tushunchalarni aniq obrazlar va qahramonlar xatti-harakatlari orqali anglashiga yordam berishi mumkin. Agar hikoya muammoli vaziyat, muqobil qarorlar va muhokama savollari bilan boyitilsa, o‘quvchilar voqealarni shunchaki kuzatibgina qolmay, ularni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish masalasi axloqiy tarbiya, hikoya asosida o‘rganish hamda raqamli ta’lim vositalariga oid tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq. Mazkur mavzuni o‘rganishda axloqiy tushunchalarni bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish va tegishli xatti-harakatlarni kundalik hayotda amalga oshirish o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash muhimdir. Shu sababli adabiyotlar sharhida raqamli hikoyalashning didaktik imkoniyatlari bilan bir qatorda, hikoya mazmunining bolalar qarori va xulqiga ta’sirini tekshirgan tadqiqotlar ham tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son[1] qarori bilan tasdiqlangan “Tarbiya” fani konsepsiyasi mazkur masalaning milliy ta’lim tizimidagi asosini belgilaydi. Konsepsiyada o‘quvchilarda mas’uliyat, majburiyat, bag‘rikenglik va ijtimoiy hayotga tayyorlikni shakllantirish, turli vaziyatlarda ma’naviy mezonlarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Shuningdek, o‘quv materiallarini tanlashda bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish talabi qo‘yilgan. Ushbu talablar raqamli hikoyalarni tanlash va yaratishda ularning axloqiy mazmuni, o‘quvchi hayotiga yaqinligi hamda yoshga muvofiqligini asosiy mezon sifatida belgilashga imkon beradi [1; 3-ilova, 8-, 14- va 16-bandlar].

Milliy pedagogik merosda axloqiy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘lash g‘oyasi Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yoritilgan. Muallif “Haqqoniyat” bo‘limida rostgo‘ylik va ishdagi to‘g‘rilikni, “Intizom” bo‘limida vazifalarni o‘z vaqtida va tartib bilan bajarishni, “Xayrixohlik” bo‘limida esa boshqalarga foyda yetkazish va yordam berishni sharhlaydi. Avloniy tarbiyachining shaxsiy namunasi hamda o‘rgatilayotgan bilim bilan amaliy xulq uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur qarashlar raqamli hikoyalarning mazmunini milliy tarbiya an’analari bilan bog‘lash uchun ahamiyatlidir: hikoyadagi axloqiy g‘oya qahramonning tanlovi va boshqalarga munosabati orqali ochib berilishi mumkin [2].

Ushbu maqolada halollik rost gapirish, o‘z xatosini tan olish va boshqalarning mehnatini o‘zlashtirmaslik bilan; mas’uliyat qabul qilingan vazifani bajarish, qaror oqibatini hisobga olish va o‘z harakatiga javob berish bilan; mehr-oqibat esa boshqaning holatini tushunish, unga e’tibor ko‘rsatish va amaliy yordam berishga tayyorlik bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Bunday ishchi talqin uch fazilatni alohida o‘rganish va ularning namoyon bo‘lishini kuzatish uchun xizmat qiladi.

Raqamli hikoyalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini tushuntirishda A. Banduraning ommaviy kommunikatsiyaga oid ijtimoiy-kognitiv nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Olim ramziy kommunikatsiyaning inson fikri, hissiyoti va harakatiga ta’sirini tahlil qilib, axborot berish va yo‘naltirish orqali yuzaga keladigan bevosita ta’sirni ijtimoiy munosabatlar hamda davomli ko‘mak bilan bog‘liq ta’sirdan farqlaydi. Ushbu nazariyaga tayangan holda, raqamli hikoyadagi qahramon xatti-harakatini o‘quvchining shaxsiy tajribasi, sinfdagi muhokama va keyingi amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarurati kelib chiqadi. Bu bog‘lanish mazkur maqolaning nazariy talqini bo‘lib, raqamli hikoyaning o‘zi barqaror fazilatni shakllantirishini tasdiqlovchi tajriba natijasi sifatida qaralmaydi [3].

Raqamli hikoyalashning didaktik imkoniyatlariga oid tadqiqotlar

B. R. Robin raqamli hikoyalashni hikoya mazmunini tasvir, matn, ovoz, musiqa va videolavhalar yordamida ifodalashga asoslangan ta’limiy faoliyat sifatida tavsiflaydi. Uning tadqiqotida o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan raqamli hikoyadan foydalanish va o‘quvchining mustaqil hikoya yaratishi ta’lim jarayonining turli shakllari sifatida ko‘rib chiqiladi. Birinchi holatda hikoya o‘quv materialini tushuntirish va muhokamani tashkil etishga xizmat qilsa, ikkinchi holatda o‘quvchi mazmunni tanlash, tartibga solish va o‘z nuqtayi nazarini ifodalashda ishtirok etadi. Muallif texnologik vosita, pedagogik yondashuv va fan mazmunining uyg‘unligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv “Tarbiya” darsida raqamli hikoyaning ahamiyatini uning axloqiy muammoni qanday ochib berishi bilan bog‘lashga asos bo‘ladi [4].

Robinning keyingi ishida raqamli hikoya yaratishning mavzu tanlash, material to‘plash, ssenariy yozish, kadrlar ketma-ketligini rejalashtirish, ovoz yozish va qayta ishlash kabi bosqichlari bayon etilgan. Muallif foydalanilgan materiallarning mualliflik huquqiga e’tibor berish, o‘quvchilarni baholash jarayoniga jalb etish va ularga

1 https://lex.uz/ru/docs/-4885018

mazmunli qayta aloqa berishni tavsiya qiladi [5; 23-25-b.]. Ushbu tavsiyalarni "Tarbiya" faniga tatbiq etishda manbani ko'rsatish, o'z hissasini haqqoniy bayon qilish va kelishilgan vazifani bajarish kabi faoliyatlarni halollik hamda mas'uliyatni mashq qilish imkoniyati sifatida tashkil etish mumkin. Biroq bunday pedagogik imkoniyat bilan fazilatning amalda rivojlanganligini alohida baholash lozim.

J. Wu va D.-T. V. Chenning 57 ta tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhi raqamli hikoyalash boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limda turli maqsadlarda qo'llanishini ko'rsatadi. Mualliflar aniqlangan natijalarni bilish, hissiy, akademik, texnologik va ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflagan. Shu bilan birga, ular adabiyotlarda ijobiy natijalarning ustunligini texnologiyaning dastlabki yangilik ta'siri hamda ijobiy natijali ishlarning ko'proq nashr etilishi ehtimoli bilan ham izohlash mumkinligini ta'kidlaydi. Ko'plab tadqiqotlarda raqamli hikoyalash bir martalik faoliyat sifatida qo'llanganligi sababli davomli kuzatuv va takroriy faoliyat sikllariga ehtiyoj mavjud [6]. Mazkur sharh "Tarbiya" darsidagi qiziqish yoki faollikning ortishini axloqiy fazilatning barqaror shakllanishi bilan tenglashtirmaslik uchun muhim metodologik asos beradi.

Raqamli hikoyalar orqali qadriyatlarni o'rgatishga oid empirik dalillar

E. Kutlucan, R. Çakır va Y. Ünalning tadqiqoti raqamli hikoyalash bilan qadriyatlar tarbiyasini bevosita bog'lagan ishlardan biridir. Sivasdagi maktabning 14 nafar 6-sinf o'quvchisi qatnashgan mazkur ish amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan harakat tadqiqoti shaklida tashkil etilgan. Unda bag'rikenglik, halollik va mas'uliyat ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, hikoya yaratishning amaliy sikllari asosan bag'rikenglikka yo'naltirilgan. Natijalarda o'quvchilarning qadriyatlarni tushuntirish imkoniyatlari kengaygani qayd etilgan. Biroq xulqdagi o'zgarishlar bo'yicha baholar bir xil bo'lmagan: olti o'qituvchining uchtasi ayrim salbiy xatti-harakatlar kamayganini, qolgan uchtasi sezilarli o'zgarish kuzatmaganini bildirgan [7; 2197–2198-b.]. Kichik tanlanma va tadqiqot shakli ushbu natijalarni barcha o'quvchilarga umumlashtirish imkonini cheklaydi.

Ü. Ataman va F. Balaman tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan tadqiqotda 5-6 yoshli 60 nafar bolaga sakkiz hafta davomida raqamli hikoyalar orqali qadriyatlar o'rgatilgan. Oldingi va keyingi o'lchovlar hamda nazorat guruhi mavjud bo'lgan ushbu kvazieksperimentda o'qituvchi va ota-ona baholari turlicha natijalarni ko'rsatgan. O'qituvchilar bahosida mas'uliyat va do'stlik bo'yicha tajriba guruhi, halollik bo'yicha esa nazorat guruhi yuqoriroq natijaga ega bo'lgan. Ota-onalar bahosida hamkorlik tajriba guruhi foydasiga farqlangan. Umumiy qadriyatlar ballida ishonchli guruhlararo farq aniqlanmagan [8; 313-314-b.]. Bu natijalar raqamli hikoyalashning ta'sirini har bir fazilat va baholash manbasi bo'yicha alohida tekshirish zarurligini ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar natijalarini maktab o'quvchilariga tatbiq etishda yosh tafovuti ham hisobga olinishi kerak.

Mazkur ikki tadqiqot raqamli hikoyalashning qadriyatlarni o'rganish uchun imkoniyat yaratishini ko'rsatsa-da, barcha axloqiy sifatlarning bir xil darajada rivojlanishi haqida xulosa chiqarishga yetarli asos bermaydi. Ularning "Tarbiya" darslari uchun ahamiyati o'quvchining hikoya yaratishdagi ishtiroki, o'qituvchi yordami va xulqdagi o'zgarishni kuzatish usullarini birgalikda ko'rib chiqishga undashidadir.

Hikoya mazmunining halollik va mehr-oqibatga ta'siri

Halollik tarbiyasida hikoyaning qanday axloqiy xabar yetkazishi K. Lee va hammualliflar tadqiqotida o'rganilgan. 3-7 yoshli bolalar bilan o'tkazilgan tajribada rostgo'ylikning ijobiy oqibatlari ta'kidlangan Jorj Vashington haqidagi hikoya bolalarning o'z qoidabuzarligini tan olish ehtimolini oshirgan. "Pinokkio" va "Bo'ri keldi" hikoyalari ayni sharoitda shunday natija bermagan. Mualliflar faqat hikoyadan keyingi bevosita xulq tekshirilganini, hikoya savollar va qahramonga taqlid qilishga undovchi ko'rsatmalar bilan birga taqdim etilganini qayd etgan [9; 1635-b.]. Ushbu natija raqamli hikoya mazmunida rostgo'ylikning ijobiy ma'nosini ochish uchun asos bo'lishi mumkin. Biroq u uzoq muddatli halollikni yoki raqamli formatning afzalligini tasdiqlamaydi.

V. Talwar, S. Yachison va K. Leducning tadqiqoti halollik haqidagi bilim bilan haqiqiy vaziyatda rost gapirish o'rtasidagi munosabatni aniqlashtiradi. Mualliflar boshqa shaxsning qoidabuzarligini yashirish vaziyatida ijobiy, salbiy va neytral hikoyalar ta'sirini solishtirgan. Bevosita savollar berilganda ijobiy hikoya tinglagan bolalar haqiqatni ko'proq aytgan. Shu bilan birga, haqiqat va yolg'onni yaxshiroq tushunish rostgo'ylikni avtomatik ravishda ta'minlamagan [10]. Bu natija halollik tarbiyasini baholashda o'quvchining axloqiy tushunchalarni izohlash qobiliyati bilan vaziyatdagi qarorini farqlash zaruratini asoslaydi.

Mehr-oqibatga yaqin bo'lgan ulashish xatti-harakati N. E. Larsen, K. Lee va P. A. Ganea tomonidan tekshirilgan. Tadqiqotda 4–6 yoshli 96 nafar bola inson qahramonli hikoya, shu hikoyaning odamsifat hayvonlar qatnashgan varianti yoki nazorat hikoyasi berilgan guruhlarga ajratilgan. Inson qahramonli hikoyani tinglagan bolalarda boshqa bolaga stiker ulashish ortgan; hayvon qahramonli hikoya xuddi shunday natija bermagan [11]. Bu dalil hikoyadagi vaziyatni real hayot bilan bog'lash masalasiga e'tibor qaratadi. Natija barcha hayvon qahramonli ertaklarni samarasiz deb hisoblashga asos bo'lmaydi; tadqiqot muayyan yosh guruhidagi bevosita ulashish xatti-harakatini o'lchagan.

Mas'uliyat, amaliy faoliyat va tadqiqotning ochiq masalalari

Mas'uliyatni shakllantirishni izchil amaliy faoliyat bilan bog'lash uchun J. A. Durlak va hammualliflarning maktabdagi ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlariga oid metatahlili ahamiyatlidir. Mualliflar 213 ta dastur va jami 270 034 nafar o'quvchiga oid natijalarni umumlashtirib, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, munosabatlar va ijobiy ijtimoiy xulqda o'rtacha yaxshilanishlarni aniqlagan. Dasturlarning izchil tashkil etilishi, faol mashqqa tayanishi, ko'nikmalarni rivojlantirishga yetarli vaqt ajratilishi va aniq maqsadlarga yo'naltirilishi natijalar bilan bog'liq bo'lgan [12; 405-408, 414-415-b.]. Bu metatahlil raqamli hikoyalashning mustaqil ta'sirini tekshirmagan, ammo hikoya bilan ishlashni muhokama va amaliy topshiriqlar bilan bog'lashga metodik asos beradi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, "Tarbiya" darsida mas'uliyatni hikoya mazmuni va uni yaratish jarayonida o'rganish mumkin. Hikoya mazmunida qahramonning va'dasi, vazifasi, tanlovi va qarorining boshqalarga ta'siri tahlil qilinadi. Yaratish jarayonida esa o'quvchilar vazifalarni kelishib olish, o'z hissasini bajarish, guruhdoshining fikrini tinglash va yakuniy mahsulotni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bular adabiyotlar asosida ilgari surilayotgan pedagogik imkoniyatlar bo'lib, ularning natijasi kuzatuv va tegishli topshiriqlar orqali tekshirilishi lozim.

Ko'rib chiqilgan adabiyotlarda bir necha metodologik masala ochiq qolmoqda. Avvalo, hikoya mazmunining ta'siri bilan uni raqamli shaklda taqdim etishning qo'shimcha ta'sirini ajratish zarur. Buning uchun bir xil axloqiy mazmundagi og'zaki, bosma va raqamli hikoyalarni taqqoslash foydali bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'quvchining tayyor hikoyani tomosha qilishi bilan uni mustaqil yaratishi turli faoliyatlar ekanligi tadqiqot tuzilishida hisobga olinishi kerak. Natijalarni baholashda axloqiy bilim, vaziyatga munosabat va kuzatiladigan xatti-harakatni alohida o'lchash, dastlabki o'zgarishlarning vaqt davomida saqlanishini tekshirish muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pedagogik tahlil, ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, taqqoslash, umumlashtirish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Taklif etilgan yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, axloqiy tushunchalarni hayotiy misollar orqali o'zlashtirishi va ko'rgazmali materiallar bilan ishlash ehtiyojiga asoslanadi.

Raqamli hikoyalar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi.

Birinchi bosqich - **tarbiyaviy maqsadni belgilash.** O'qituvchi dars davomida qaysi fazilatni rivojlantirishga e'tibor qaratilishini aniqlaydi. Masalan, halollik mavzusida rostgo'ylik va o'zgalarning haqqini hurmat qilish, mas'uliyat mavzusida topshiriqlarni vijdonan bajarish, mehr-oqibat mavzusida esa boshqalarga yordam berish masalalari yoritiladi.

Ikkinchi bosqich - **raqamli hikoyani tanlash yoki yaratish.** Hikoya o'quvchilarning yoshiga mos, qisqa va mazmunan tushunarli bo'lishi kerak. Unda o'quvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatlar tasvirlanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi bosqich - **hikoyani namoyish etish.** O'qituvchi hikoyani video, animatsiya, ovozli taqdimot yoki interaktiv slayd shaklida namoyish qiladi. Muhim vaziyatlarda hikoya to'xtatilib, o'quvchilarga qahramonning keyingi harakati haqida savollar beriladi.

To'rtinchi bosqich - **axloqiy tahlil.** O'quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydilar, qarorlarning oqibatlarini muhokama qiladilar va o'z fikrlarini asoslaydilar. O'qituvchi tayyor xulosani berishdan oldin o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga sharoit yaratadi.

Beshinchi bosqich - **amaliy faoliyat va refleksiya.** O'quvchilar hikoyaning davomini yaratish, qahramonga maslahat berish, muqobil yakun taklif qilish yoki o'z hayotidan shunga o'xshash vaziyatni misol keltirish orqali o'zlashtirgan tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Ushbu bosqichlarning izchil tashkil etilishi raqamli hikoyalarni oddiy ko'rgazmali vositadan maqsadli tarbiyaviy faoliyat vositasiga aylantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy-metodik tahlil asosida raqamli hikoyalardan foydalanish orqali halollik, mas'uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini rivojlantirishning bir-birini to'ldiruvchi uchta yo'nalishi belgilandi.

1. Halollik fazilatini rivojlantirish

Halollikni shakllantirishda o'quvchilarni rostgo'ylik, adolat, vijdon va o'zgalarning mulkiga hurmat kabi tushunchalar bilan bog'liq vaziyatlar orqali fikrlashga undash muhimdir.

Masalan, "Topilgan buyum" nomli raqamli hikoyada o'quvchi maktab hovlisidan hamyon topib oladi. Hikoya qahramonning tanlovi oldidan to'xtatiladi. O'quvchilar bilan hamyonni o'zida olib qolish, egasini izlash yoki

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

o‘qituvchiga topshirish variantlari muhokama qilinadi.

Hikoya yuzasidan quyidagi savollar beriladi:

1. Qahramon qanday qaror qabul qilishi kerak?
2. Nima uchun topilgan buyumni egasiga qaytarish muhim?
3. Agar buyum qaytarilmasa, uning egasi qanday holatga tushishi mumkin?
4. Siz shunday vaziyatda qanday yo‘l tutardingiz?

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning halollik haqidagi tushunchalarini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashiga va o‘z qarorini axloqiy mezonlar asosida tushuntirishiga ko‘maklashadi.

2. Mehr-oqibat fazilatini rivojlantirish

Mehr-oqibat o‘zgalarning his-tuyg‘ularini tushunish, yordamga ehtiyoj sezayotgan insonni qo‘llab-quvvatlash va samimiy munosabat ko‘rsatish orqali shakllanadi.

“Yangi sinfdosh” nomli raqamli hikoyada sinfga yangi o‘quvchi keladi. U boshqa bolalarni yaxshi tanimagani sababli mashg‘ulotlarda tortinadi va tanaffusda yolg‘iz qoladi. Hikoya o‘quvchilarga vaziyatni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Muhokama savollari:

1. Yangi o‘quvchi o‘zini qanday his qilishi mumkin?
2. Sinfdoshlari unga qanday yordam berishlari mumkin?
3. Boshqalarning holatini tushunish nima uchun muhim?
4. Mehr-oqibatni kundalik hayotda qanday namoyon etish mumkin?

O‘quvchilar qahramonga yordam berishning turli usullarini taklif qiladilar. Masalan, u bilan suhbatlashish, o‘yinlarga taklif qilish, sinf qoidalarini tushuntirish yoki guruh ishlariga jalb etish. Bu jarayonda mehr-oqibat tushunchasi aniq xatti-harakatlar bilan bog‘lanadi.

Raqamli hikoyalar asosida ishlash metodlari

Uch fazilatni rivojlantirishda quyidagi metodik usullardan foydalanish taklif etiladi:

“Qahramon o‘rnida bo‘lsang...” – o‘quvchi qahramonning vaziyatini tasavvur qiladi va qanday yo‘l tutishini asoslaydi.

“To‘g‘ri qarorni tanla” – hikoyada bir nechta xatti-harakat varianti taqdim etiladi. O‘quvchilar ularning oqibatlarini tahlil qilib, o‘z tanlovlarini izohlaydilar.

“Hikoyaning muqobil yakuni” – o‘quvchilar voqea yakunini o‘zgartiradilar va yangi yakun qanday natijaga olib kelishini tushuntiradilar.

“Fazilatni aniqlang” – hikoyada namoyon bo‘lgan halollik, mas’uliyat yoki mehr-oqibat belgilarini aniqlaydilar.

“Hayotga tatbiq et” – o‘quvchilar hikoyadagi vaziyatni maktab, oila yoki mahalla hayoti bilan bog‘laydilar va shu fazilatni namoyon etishning amaliy yo‘llarini aytadilar.

Ushbu metodlar o‘quvchilarning fikrlash, mulohaza yuritish, qaror qabul qilish va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarning fazilatlarini baholash mezonlari

Raqamli hikoyalar asosidagi mashg‘ulotlar samaradorligini kuzatishda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin (1-jadval).

1-jadval: **Raqamli hikoyalar asosida o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini baholash mezonlari va kuzatiladigan ko‘rsatkichlar**

Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
Halollikni anglash	Rostgo‘ylik va adolatning ahamiyatini izohlaydi
Mas’uliyatni anglash	O‘z vazifalari va qarorlari oqibatlarini tushuntiradi
Mehr-oqibatni anglash	Boshqalarning holatini hisobga olib, yordam yo‘llarini taklif qiladi
Axloqiy qaror	Muqobil variantlarni solishtirib, tanlovini asoslaydi
Refleksiya	O‘z xatti-harakatlarini tahlil qilib, xulosa chiqaradi

Baholash faqat o‘quvchining og‘zaki javoblari bilan cheklanmasligi kerak. Pedagogik kuzatuv, vaziyatli topshiriqlar, guruhli faoliyat va o‘quvchining o‘z fikrini izohlashi ham hisobga olinishi lozim. Fazilatlarning kundalik xulq-atvorda namoyon bo‘lishini aniqlash uchun esa turli vaziyatlarda takroriy kuzatuv talab etiladi.

Raqamli hikoyalarning tarbiyaviy imkoniyati, avvalo, ularning mazmuni va dars jarayonida qo‘llanish usuliga bog‘liq. Tasvir, ovoz va animatsiya o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishi mumkin, biroq axloqiy fazilatlarning shakllanishi uchun mazmunli muhokama, mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat zarur.

Halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat o‘zaro bog‘liq fazilatlardir. Masalan, o‘quvchi topilgan buyumni egasiga qaytarish orqali halollikni, bu jarayonni oxirigacha amalga oshirish orqali mas’uliyatni, buyum egasining holatini tushunish orqali esa mehr-oqibatni namoyon etishi mumkin. Shu sababli raqamli hikoyalarni faqat bitta fazilatni yorituvchi material sifatida emas, balki bir nechta axloqiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi vosita sifatida ham qo‘llash maqsadga muvofiq.

Bunda o‘qituvchining roli muhim hisoblanadi. U o‘quvchilarga tayyor xulosalarni majburan qabul qildirish o‘rniga, ularni vaziyatni tahlil qilishga, turli qarashlarni tinglashga va qarorlarini dalillar bilan asoslashga yo‘naltirishi kerak. O‘quvchilarning fikrlari turlicha bo‘lishi mumkin; pedagog ularni axloqiy me’yorlar va ehtimoliy oqibatlar asosida muhokama qilishga yordam beradi.

Raqamli hikoyalardan foydalanishda o‘quvchilarning yoshiga moslik, mazmunning ishonchliligi, mualliflik huquqi va raqamli xavfsizlik masalalari ham hisobga olinishi lozim. Texnik vositalar mavjud bo‘lmagan holatlarda hikoyaning alohida sahnalari rasmlar, kartochkalar yoki o‘qituvchi tomonidan ovoz chiqarib o‘qish orqali ham tashkil etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Hikoyalardagi hayotiy vaziyatlar o‘quvchilarga axloqiy tushunchalarni anglash, qahramonlar xatti-harakatlarini baholash va o‘z qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Taklif etilgan metodik yondashuvning samaradorligini aniqlash uchun amaliy tajriba-sinov ishlari o‘tkazilishi zarur. Bunda o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy natijalari, vaziyatli topshiriqlarga javoblari, muhokamadagi ishtiroki va xulq-atvoriga oid kuzatuvlar tahlil qilinishi mumkin. Haqiqiy tajriba natijalari mavjud bo‘lmaguncha, mazkur metodikaning samaradorligi isbotlangan deb emas, balki nazariy-metodik jihatdan asoslangan yondashuv sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qaror. 3-ilova: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/-4885018 (murojaat sanasi: 26.10.2026).
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq [Elektron resurs]. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - 47 b. - URL: Asarning elektron matni (murojaat sanasi: 26.10.2026).
3. Bandura A. Social Cognitive Theory of Mass Communication // Media Psychology. - 2001. - Vol. 3, № 3. - P. 265–299. - DOI: 10.1207/S1532785XMEP0303_03.
4. Robin B. R. Digital Storytelling: A Powerful Technology Tool for the 21st Century Classroom // Theory Into Practice. - 2008. - Vol. 47, № 3. - P. 220-228. - DOI: 10.1080/00405840802153916.
5. Robin B. R. The Power of Digital Storytelling to Support Teaching and Learning // Digital Education Review. - 2016. - № 30. - P. 17-29. - URL: https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1125504.pdf (murojaat sanasi: 26.10.2026).
6. Wu J., Chen D.-T. V. A Systematic Review of Educational Digital Storytelling // Computers & Education. - 2020. - Vol. 147. - Article 103786. - DOI: 10.1016/j.compedu.2019.103786.
7. Kutlucan E., Çakır R., Ünal Y. Dijital Öykü Anlatımı ile Verilen Değerler Eğitimine Yönelik Bir Eylem Araştırması [An Action Research for the Value Education Provided With Digital Storytelling] // Kastamonu Education Journal. - 2019. - Vol. 27, № 5. - P. 2187-2202. - DOI: 10.24106/kefdergi.3388.
8. Ataman Ü., Balaman F. Dijital Öyküleme Yoluyla Değerler Öğretiminin Okul Öncesi Çocuklarının Değer Düzeyleri Üzerindeki Etkisi // EKEV Akademi Dergisi. - 2024. - № 100. - P. 305-318. - DOI: 10.17753/sosekev.1548725.
9. Lee K., Talwar V., McCarthy A., Ross I., Evans A., Arruda C. Can Classic Moral Stories Promote Honesty in Children? // Psychological Science. - 2014.- Vol. 25, № 8. - P. 1630-1636. - DOI: 10.1177/0956797614536401.
10. Talwar V., Yachison S., Leduc K. Promoting Honesty: The Influence of Stories on Children’s Lie-Telling Behaviours and Moral Understanding // Infant and Child Development. - 2016. - Vol. 25, № 6. - P. 484–501. – DOI: 10.1002/icd.1949.
11. Larsen N. E., Lee K., Ganea P. A. Do Storybooks with Anthropomorphized Animal Characters Promote Prosocial Behaviors in Young Children? // Developmental Science. - 2018. - Vol. 21, № 3. - Article e12590. - DOI: 10.1111/desc.12590.
12. Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki A. B., Taylor R. D., Schellinger K. B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. - 2011. - Vol. 82, № 1. - P. 405–432. - DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.